LOYIHA ISHI: “AGAR MEN DIZAYNER BO‘LSAM...”

“Agar men dizayner bo‘lsam...” – O‘zbekistonning milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyotini aks ettiruvchi ramziy kompozitsiya yaratish.

Sinf: 9-11-sinflar (“Kelajak soati” mashg‘ulotlari uchun).
Mashg‘ulot davomiyligi: 45 daqiqa.
Mashg‘ulot turi: Amaliy-kreativ, loyihaviy va munozarali mashg‘ulot.
Mashg‘ulotning maqsadi

O‘quvchilarda milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-madaniy merosimiz va zamonaviy taraqqiyotimiz o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, ularni ramziy tasvirlar orqali ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘quvchilarning kreativ fikrlashi, estetik didi, milliy g‘ururi, loyihalash va o‘z g‘oyalarini asoslab taqdim etish qobiliyatlarini shakllantirish.

Kutilayotgan natija

O‘quvchilar milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyotni ifodalovchi ramziy kompozitsiyalar yaratadi, tanlangan har bir elementning mazmunini tushuntiradi, ijodiy g‘oyalarini asoslaydi hamda milliy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish haqida xulosa chiqaradi.

Kerakli jihozlar

Proyektor, milliy naqshlar va zamonaviy me’moriy inshootlar tasvirlari, A3 qog‘ozlar, rangli qalamlar, markerlar va tarqatma materiallar.

MASHG‘ULOTNING BORISHI

I.TASHKILIY QISM (3 daqiqa)

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashadi, davomatni aniqlaydi va mashg‘ulotga tayyorgarlikni tekshiradi. O‘quvchilar ijodiy faoliyatga yo‘naltiriladi, loyiha ishining maqsadi va bajarish tartibi tushuntiriladi.

II. MOTIVATSION QISM. “MILLIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG‘UNLIGI” (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi mashg‘ulotimizni bir savol bilan boshlaymiz. Tasavvur qiling, sizga O‘zbekistonni dunyoga tanitadigan zamonaviy dizayn yaratish vazifasi topshirildi.

Siz ushbu dizaynda xalqimizning qaysi milliy qadriyatlari va zamonaviy yutuqlarini aks ettirgan bo‘lardingiz?

O‘quvchilar: Milliy naqshlar, atlas va adras, tarixiy obidalar, do‘ppi, zamonaviy binolar, texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini.

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Demak, O‘zbekistonni ifodalovchi zamonaviy dizayn yaratishda tarixiy merosimiz va bugungi taraqqiyotimizni uyg‘unlashtirish mumkin.

Bugun sizlar “Agar men dizayner bo‘lsam...” loyihasi orqali ana shunday ramziy kompozitsiyalar yaratasiz va har bir elementning ma’nosini asoslab berasiz.

III. MILLATIMIZ FIDOIYLARI (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar! Har bir millatning tarixida o‘z hayotini xalq kelajagi, yoshlar ta’limi va yurt taraqqiyotiga bag‘ishlagan fidoyi insonlar bo‘ladi. Ular xalqni uyg‘otishni, jaholat o‘rniga ma’rifatni, qoloqlik o‘rniga taraqqiyotni olib kirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. Jadid bobolarimiz ana shunday buyuk maqsad egalari edi. Bugun ana shu fidoyilardan ikki nafarining hayot yo‘li bilan tanishamiz.

Toshkentda tug‘ilgan Shahid Eson Musayev jadidchilik harakatining faol vakili, ma’rifatparvar pedagog edi. Dastlab maktab va madrasada tahsil olgan, so‘ng bilimini oshirish uchun Turkiyaga borib, Istanbul universitetining pedagogika fakultetini tamomlagan. U Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligidagi maktabda o‘qituvchilik faoliyatini boshlagan. Keyinchalik Toshkentda ta’lim sohasida ishlab, «Ko‘mak» va “Nashri maorif” tashkilotlari faoliyatida qatnashgan. Uning asosiy maqsadi xalqni ilmli, yosh avlodni esa zamonaviy bilimli qilish edi. Ammo ma’rifat yo‘lida xizmat qilgan bu inson sovet matbuotida millatchilikda ayblandi. 1928-yil 12-noyabrda «Milliy ittihod» tashkiloti a’zosi sifatida qamoqqa olindi. Uning keyingi taqdiri noma’lumligicha qolgan.

Avliyoota (hozirgi Taroz) shahrida tug‘ilgan Hodi Fayziy Ufadagi «G‘oliya» yangi usul madrasasida tahsil olgan. U butun faoliyatini xalq ma’rifati, ta’lim va ilm-fan rivojiga bag‘ishlagan. Turkistonning shahar va qishloqlarida o‘qituvchilar tayyorlash kurslarini tashkil etgan. Buxoro maorif uyiga rahbarlik qilgan, Samarqanddagi Kommunistik universitet va Qrimdagi institutda direktor bo‘lib ishlagan. Nashriyot ishlari rivojiga ham munosib hissa qo‘shgan. Iqtisodiyot nazariyasi va tarixga oid asarlar yozgan. Afsuski, Hodi Fayziy ham 1937-yilgi qatag‘on qurboni bo‘lib, dekabr oyida otib o‘ldirilgan.

Ularning hayoti bizga nimani anglatadi?

Shahid Eson Musayev va Hodi Fayziy hayoti – millat ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishning yorqin namunasidir. Ular boylik yoki mansabni emas, xalqning bilimli bo‘lishini, yoshlarning zamonaviy ta’lim olishini va yurtning taraqqiy etishini ustuvor vazifa deb bildilar.

Bugun biz ozod va mustaqil yurtda yashar ekanmiz, ularning orzu-armonlari bizga katta mas’uliyat yuklaydi. Zero, mustaqillikni asrash faqat uni qadrlash bilan emas, balki bilim olish, Vatanga munosib xizmat qilish va milliy qadriyatlarimizni e’zozlash bilan namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi: O‘ylab ko‘ring!

Agar siz jadid bobolarimiz bilan uchrashish imkoniga ega bo‘lganingizda, ularga qanday savol bergan bo‘lardingiz?

O‘quvchilar: Javob berishadi.

Bugungi yoshlar ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini qanday davom ettirishi mumkin?

Unutmang! Ajdodlarimizning orzusi - ma’rifatli millat, ozod Vatan va baxtli avlod edi. Bugun ana shu orzularni ro‘yobga chiqqanini ko‘rib turibmiz. Ularning nomini yod etish - tarix oldidagi burchimiz, ezgu ishlarini davom ettirish esa kelajak oldidagi mas’uliyatimizdir!

IV. ASOSIY QISM. “MILLIY MEROSDAN – ZAMONAVIY DIZAYN SARI” (20 daqiqa)

1. “Ramzlar nimani anglatadi?”

O‘qituvchi: Ekrandagi milliy naqshlar, tarixiy obidalar va zamonaviy inshootlarga e’tibor bering. Sizningcha, ularning qaysi jihatlari O‘zbekistonning milliy o‘zligi va taraqqiyotini ifodalaydi?

O‘quvchilar: (Fikrlarini bildiradilar.)

- Milliy naqshlar xalqimizning san’ati va an’analarini ifodalaydi.
- Tarixiy obidalar boy madaniy merosimizni eslatadi.
- Zamonaviy binolar va texnologiyalar mamlakatimiz taraqqiyotini aks ettiradi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Dizaynda har bir tasvir, rang va shakl muayyan g‘oyani ifodalashi kerak. Endi ushbu bilimlaringizni amaliy loyihada qo‘llaysiz.

2. Loyiha ishi: “Agar men dizayner bo‘lsam...”

O‘qituvchi: Sizlar uchta guruhga bo‘linib, O‘zbekistonning milliy qadriyatlari va zamonaviy taraqqiyotini aks ettiruvchi ramziy kompozitsiya yaratasiz.

Har bir guruh A3 qog‘ozda o‘z loyihasini tasvirlaydi. Kompozitsiyada kamida uchta ramziy element bo‘lishi va ularning har biri izohlanishi kerak.

1-guruh – “Milliy meros va kelajak”

Topshiriq: Tarixiy obidalar, milliy naqshlar va zamonaviy me’morchilikni uyg‘unlashtiruvchi kompozitsiya yarating.

O‘quvchi: Biz kompozitsiyamizda Registon me’morchiligi, milliy naqshlar va zamonaviy binolarni tasvirladik. Registon tarixiy merosimizni, naqshlar milliy san’atimizni, zamonaviy binolar esa taraqqiyotimizni ifodalaydi.

2-guruh – “Ilm-fan va taraqqiyot”

Topshiriq: Milliy qadriyatlar, ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni birlashtiruvchi dizayn yarating.

O‘quvchi: Biz kitob, milliy naqshlar va raqamli texnologiyalar tasvirini birlashtirdik. Kitob ilm-ma’rifatni, naqshlar milliy o‘zligimizni, texnologiyalar esa innovatsion taraqqiyotni anglatadi.

3-guruh – “Yashil O‘zbekiston”

Topshiriq: Milliy an’analar, tabiat va ekologik taraqqiyotni ifodalovchi ramziy kompozitsiya yarating.

O‘quvchi: Biz daraxt, quyosh, milliy naqshlar va zamonaviy ekologik binolarni tasvirladik. Daraxt tabiat va hayotni, quyosh yorug‘ kelajakni, milliy naqshlar qadriyatlarimizni, ekologik binolar esa barqaror taraqqiyotni ifodalaydi.

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Sizlar yaratgan kompozitsiyalarda milliy qadriyatlarimiz zamonaviy taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan.

Eslatma: loyihalarda davlat ramzlarining rasmiy tasvirlarini o‘zgartirish emas, balki milliy madaniyat va taraqqiyotni ifodalovchi mustaqil badiiy kompozitsiyalar yaratish nazarda tutiladi.

3. “Mening dizaynim – mening g‘oyam”

O‘qituvchi: Endi har bir guruh o‘z kompozitsiyasini qisqacha taqdim etadi. Taqdimotda quyidagi savollarga javob berishingiz kerak:

Kompozitsiyangiz qanday nomlanadi?

Undagi ramziy elementlar nimani ifodalaydi?

Dizayningiz orqali qanday g‘oyani yetkazmoqchisiz?

O‘quvchilar: Guruhlar o‘z loyihalarini taqdim etadilar, tanlangan elementlarning mazmunini asoslaydilar.

O‘qituvchi: Demak, zamonaviy dizayn milliy qadriyatlarimizni asrash, ularni yangicha talqin qilish va dunyoga tanitishning samarali vositalaridan biri bo‘lishi mumkin.

V. RAG‘BATLANTIRISH (5 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugun sizlar dizayner sifatida milliy merosimiz va zamonaviy taraqqiyotimizni birlashtiruvchi ijodiy loyihalar yaratdingiz.

Endi quyidagi jumlani davom ettiring:

“Bugun men angladimki, milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot...”

1-o‘quvchi: ...bir-birini to‘ldiradi va xalqimizning o‘zligini saqlashga xizmat qiladi.

2-o‘quvchi: ...yangi g‘oyalar va innovatsion loyihalarda uyg‘unlashishi mumkin.

3-o‘quvchi: ...O‘zbekistonning kelajakdagi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Milliy merosimizni qadrlash va zamonaviy bilimlarni egallash orqali biz Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha olamiz.

Faol ishtirokchilar **“Eng kreativ dizayn”, “Eng mazmunli ramziy kompozitsiya” va “Eng yaxshi taqdimot”** nominatsiyalari bo‘yicha rag‘batlantiriladi.

VI. UYGA VAZIFA (2 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi mashg‘ulotda yaratgan kompozitsiyalaringizni yanada takomillashtiring.

“Mening tasavvurimdagi kelajak O‘zbekiston” mavzusida kichik rasm yoki raqamli dizayn tayyorlang. Unda milliy qadriyatlarimiz va zamonaviy taraqqiyotimizni ifodalovchi kamida uchta elementdan foydalaning hamda ularning mazmunini 3-4 ta gap bilan izohlang.

Keyingi mashg‘ulotda ijodiy ishlaringizni birgalikda muhokama qilamiz.

Unutmang, milliy qadriyatlarni asrash va zamonaviy taraqqiyotga intilish - Vatanimiz kelajagini bunyod etishning muhim asosidir.

Mashg‘ulotimiz yakunlandi. E’tiboringiz uchun rahmat!